Yuridik faoliyatda gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilishning psixologik jixatlari

Xaydarjon Odilboyevich Jurayev
Sitorabonu Zohidjon-qizi Raxmonova
Dilshodaxon Muzrobxon-qizi Safayeva
University of business and science

Annotatsiya: Ushbu mavzuda yuridik faoliyatda gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilishning psixologik jihatlari yoritilgan. So‘roq jarayonida shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, xulq-atvori, psixologik himoya mexanizmlari va muloqot strategiyalarining ahamiyati tahlil qilingan. Shuningdek, samarali va qonuniy so‘roq olib borishning psixologik shartlari ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: yuridik psixologiya, so‘roq qilish, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, tergov faoliyati, individual-psixologik xususiyatlar, emotsional holat, psixologik ta’sir, kasbiy muloqot, psixologik himoya mexanizmlari

Psychological Aspects of Interrogating Suspects and Accused Persons in Legal Practice

Khaydarjon Odilboyevich Jurayev
Sitorabonu Zohidjon-qizi Rakhmonova
Dilshodaxon Muzrobxon-qizi Safayeva
University of Business and Science

Abstract: This topic examines the psychological aspects of interrogating suspects and accused persons in legal practice. It analyzes individual psychological characteristics, emotional states, behavioral patterns, psychological defense mechanisms, and communication strategies during interrogation. The psychological conditions for conducting effective and lawful interrogations are also discussed.

Keywords: legal psychology, interrogation, suspect, accused person, investigative activity, individual psychological characteristics, emotional state, psychological influence, professional communication, psychological defense mechanisms

(cc) BY

KIRISH

Yuridik faoliyatda gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish tergov jarayonining muhim protsessual harakatlaridan biri bo‘lib, u nafaqat huquqiy bilimlarni, balki chuqur psixologik yondashuvni ham talab etadi. So‘roq jarayonida shaxsning emotsional holati, individual-psixologik xususiyatlari, xulq-atvori, nutqi va savollarga munosabatini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyatga ega. Shu bois tergovchining psixologik bilimlardan samarali foydalanishi muloqotni to‘g‘ri tashkil etish, psixologik to‘siqlarni bartaraf etish hamda olingan ma’lumotlarni xolisona tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur jarayonda qonuniylik, inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish, ruhiy bosim va majburlashga yo‘l qo‘ymaslik asosiy tamoyillar hisoblanadi. So‘roq qilish yuridik faoliyatda haqiqatni aniqlash, jinoyat holatlarini oydinlashtirish hamda ish uchun ahamiyatli ma’lumotlarni olishga qaratilgan muhim tergov harakatlaridan biridir. Ushbu jarayonda gumon qilinuvchi va ayblanuvchining individual-psixologik xususiyatlari, emotsional holati, xulq-atvori, stressga munosabati hamda muloqotga kirishish xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. So‘roq jarayonida psixologik bilimlardan to‘g‘ri foydalanish muloqot samaradorligini oshirish, olingan ma’lumotlarni xolis baholash va qonuniylik tamoyillariga rioya etishga xizmat qiladi.

Eng muhim tergov harakatlaridan biri so‘roq qilish bo‘lib, jinoyatlar-ning tez va to‘liq ochilishi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi-lar aybining isbotlanishi unga bog‘liqdir. Jinoyat protsessi va kriminalistik nuqtai nazaridan, so‘roq qilish - so‘roq qilinuvchilardan tergov qilinayot-gan jinoyatga oid ma’lumotlarni olishdir. Psixologik nuqtai nazardan so‘roq qilish tergovchining bevosita kuza-tilmayotgan voqea, fakt va holatlarni ushbu faktlar haqida guvohlik beruv-chi shaxslar nutqini idrok etish orqali bilish vositalaridan biri hisoblanadi.

Yuridik psixologiyada so‘roq qilish deganda nima tushuniladi? So‘roq qilish - so‘roq qilinayotgan shaxsdan tergovni qiziqtirayotgan hodisa va faktlar (holatlar) haqida to‘liq va to‘g‘ri axborot olish maqsadida tergovchining so‘roq qilinayotgan shaxs bilan bo‘ladigan muloqoti bo‘lib, bunda qonun doirasida so‘roq qilinuvchining fikrlashi, hissiy va irodaviy sohasiga ta’sir ko‘rsatiladi. Shunday qilib, psixologik nuqtai nazaridan, so‘roq qilish tergov hara-katini so‘roq qilinuvchi shaxs bilan muloqot qilish va unga ta’sir ko‘rsatish jarayoni deb ta’riflash mumkin.

So‘roq qilish jarayonida shaxslararo muloqotning psixologik qonu-niyatlari o‘ziga xos jihatlarga ega:

- so‘roq qilish jinoyat-protsessual qonun normalari bilan tartibga solingan bo‘lib, ushbu normalarga muvofiq tergovchiga muloqotni boshqa-rish vakolati beriladi;

- tergovchi bilan so‘roq qilinuvchi o‘rtasida majburlov muloqoti vazi-yati yuzaga kelib, so‘roq qilinuvchining ruhiy holatiga ta’sir etadi;

(cc) BY

- tergovchining so‘roq qilinuvchi bilan muloqoti natijalari so‘roq qilish bayonnomasida ifodalanishi, o‘rnatilgan tartibda tasdiqlanishi kerak. So‘roq qilish dastlab axborot almashuvida tengsizlikni taqozo etadi.

Tergovchining so‘roq qilishi doimo nihoyatda cheklangan bo‘ladi. So‘roq qilishning hajmi, miqdori, sifati hamda tergovchi tomonidan axborotni berish ketma-ketligi qat’iy tartibga solinganligi uni samarali o‘tkazishning asosiy shartidir. Ushbu tergov harakati boshqa tergov harakatlaridan bir qator muhim psixologik jihatlari bilan ajralib turadi. Bunda ham ijobiy, ham salbiy jihatlar mavjud.

Ijobiy jihatlar quyidagilarda ko‘rinadi:

- so‘roq qilish boshqa tergov harakatlarini o‘tkazishdan osonroq;

- uning o‘tkazilish samaradorligi ko‘p jihatdan tergovchining kasbiy mahorati va ishga doir mavjud dalillarning hajmiga bog‘liq;

- sodir etilgan jinoyatga oid aniqlanishi zarur bo‘lgan biror-bir holat qolib ketgan bo‘lsa, so‘roqni qayta o‘tkazish yoki kechiktirish mumkin.

So‘roq qilishning salbiy jihatlari quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- muloqot jarayonida psixologik to‘siqlarga duch kelinishi;

- firibgarlik va shu kabi boshqa jinoyat turlari bo‘yicha so‘roq qilish natijalari guvohlar ko‘rsatuvlarining ishonchliligiga bog‘liqligi;

- ayrim holatlarda so‘roqni o‘tkazishdagi texnik qiyinchiliklar.

Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish guvohni so‘roq qilishdan farq qiladi. Bu farqlar psixologik aloqa o‘rnatish jarayonida ko‘zga tashlanadi.

Sodir etgan jinoyati uchun qattiq afsusda bo‘lgan shaxs so‘roq boshla-nishidan ancha avval vijdon azobini, uyat hissini, qilmishidan afsus-nado-matni his qiladi. Bunday ayblanuvchi tergovchi qiyofasida o‘ziga ham-dard, yuz bergan voqeani xolisona bilib olishni istayotgan insonni ko‘radi. Unda tergovchiga nisbatan ishonch paydo bo‘ladi. O‘z aybini chin dildan tan olishi, to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berishi aybini yengillashtiruvchi holat bo‘li-shi haqida tergovchi bergan izohlarni tushunadi. Ayblanuvchining bunday pozitsiyasi, shubhasiz, tergovchi va so‘roq qilinuvchi o‘rtasida aloqa o‘rnatilishiga asos bo‘ladi.

Ayblanuvchi bilan aloqa o‘rnatishda tergovchining emotsional holati, kayfiyati va so‘roq qilish ohangi muhim rol o‘ynaydi. «Ko‘zgu» mexanizmi bo‘yicha, so‘roq qilinayotgan shaxs tergovchining emotsional holatiga mos tarzda «rag‘bat» oladi. Shu bois tergovchining xotirjamligi, gaplarining bir tekis ohangi, hissiy vazminligi so‘roq qilinayotgan shaxsdagi hayajonni bartaraf etadi, tergovchining ishning barcha jihatlarini xolisona tekshirib chiqishga intilishi esa, so‘roq qilinayotgan shaxsda unga nisbatan ishonch uyg‘otadi.

Bila turib yolg‘on ko‘rsatuvlar berishga qasd qilgan, buning ustiga il-gari sudlangan ayblanuvchi bilan aloqa o‘rnatish qiyinroq kechishi mum-kin. Ba’zan bunday nizoli vaziyatda aloqa o‘rnatishning iloji bo‘lmaydi. So‘roq qilish o‘zaro

(cc) BY

kurash xususiyatiga ega bo‘ladi. Bunday sharoitda tergovchining psixologik vazifasi ayblanuvchiga raqibiga nisbatan hurmat ko‘rsatish kerakligini, tergovni aldash umidsizlik hissi ekanligini singdi-rishdan iborat bo‘ladi. Bu esa aloqa o‘rnatish va ayblanuvchini to‘g‘ri ko‘rsatuvlar berishga undash yo‘lida tashlangan birinchi qadamdir. O‘zini batamom aybdor deb hisoblovchi ayblanuvchini so‘roq qilish odatda nizosiz kechadi, birovning aybini o‘ziga olish yoki ishtirokchi-lardan birini tergovdan yashirish yoxud aybini kamaytirib ko‘rsatishga urinishlargina bundan mustasno. Biroq so‘roq qilish avvalida nizosiz bosh-langan vaziyat tergovchining so‘roq qilinayotgan shaxsga qo‘pol va beta-kalluf munosabati, ziyrak emasligi, so‘roq qilinayotgan shaxsning insoniy taqdiriga e’tiborsizligi, uni tushuna olmasligi va buni oshkora istamasligi tufayli keskinlashishi mumkin.

Fuqaro ayol U. tuman IIB navbatchilik qismiga kelib, bir necha daqiqa avval birga yashovchi eri V.ni o‘ldirganligini aytgan. O‘tkazilgan tekshi-ruv natijasida V. haqiqatan ham U. xonimning uyida yurak sohasiga pichoq urib o‘ldirilgani aniqlangan.

Tergovchi K. voqea joyini ko‘zdan kechirgandan so‘ng, uni xizmat xonasiga boshlagan. U. xonimni so‘roq qilishni: «Xo‘sh, uni qanday o‘ldirganligingizni aytib bering-chi», - degan gaplar bilan boshlagan. Bun-ga javoban U. xonim tergovchini uyat so‘zlar bilan haqoratlagan va ko‘rsatuv berishdan qat’iyan bosh tortgan.

Yosh tergovchi K. o‘z xatosini darhol tushungan, yuz bergan voqea haqida prokurorga xabar bergan va ishni boshqa tergovchiga olib berishni so‘ragan. Boshqa tergovchining U. xonim bilan aloqa o‘rnatish uchun uzoq vaqt sarflashiga to‘g‘ri kelgan, shundan so‘ng gumon qilinuvchi o‘zi sodir etgan qotillikning holatlari, motivlari haqida batafsil axborot bergan.

Ko‘p hollarda tergovchilar tergovning dastlabki bosqichida ayblanuv-chi har qanday ko‘rsatuv berishdan bosh tortgan hollarga duch keladilar. Bunday vaziyatlarda tergovchi ayblanuvchiga taktik ta’sir ko‘rsatishiga to‘g‘ri keladi. Bu ta’sir quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

- ayblanuvchini u egallagan pozitsiyaning noto‘g‘riligiga ishontirish;
- ayblanuvchiga boshqa tergov ishtirokchilari ko‘rsatuv berganligi faktidan foydalanish;
- ishtirokchilar manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlardan foydalanish.

Gumon qilinuvchini so‘roq qilish taktikasi ayblanuvchini so‘roq qilish taktikasiga o‘xshab ketadi, shuningdek, ayrim o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. Bu xususiyatlar shundan iboratki, tergovchida gumon qilinuvchi-ning shaxsi haqidagi ma’lumotlar cheklangan bo‘ladi. Bundan tashqari, gumon qilinuvchi so‘roq qilinayotganda ayblanuvchi so‘roq qilinayotgan-dagi kabi ishonchli dalillar bo‘lmaydi. Shu bilan birga, afzalligi ham bor. Bu kutilmaganlik omili bo‘lib, u so‘roq

(cc) BY

qilinayotgan shaxsga himoyalanish yo‘lini o‘ylashi, tergov uning aybdorligini ko‘rsatuvchi bir qancha dalil-larga ega ekanligini o‘ylab ko‘rishiga imkon bermaydi.

So‘roq qilinayotgan shaxsning yolg‘onini fosh qilish chog‘ida so‘roq qilishning psixologik xususiyatlari. Yolg‘on ko‘rsatuvlarni nafaqat gumon qilinuvchilar, balki guvohlar ham beradilar. So‘roq qilinayotgan shaxs yol-g‘on ko‘rsatuvlarni o‘z manfaatlari uchun ham, o‘ziga ziyon keltirib ham berishi mumkin (masalan, birovning aybini o‘ziga olayotganida).

Guvohning yolg‘on ko‘rsatuvlar berishida quyidagi motivlar mavjud bo‘ladi:

- gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, ularning qarindosh va tanishlari qasos olishlaridan qo‘rqish;

- ishga jalb etilgan boshqa shaxslar bilan munosabatlari buzilishidan xavotirlanish;

- qarindoshlik, oila va do‘stlik munosabatlari tufayli yoxud g‘araz maqsadlarda gumon qilinuvchi (ayblanuvchi)ning aybini yashirish yoki yumshatishni istash, shuningdek, qasos, rashk kabilar tufayli mazkur shaxslarning aybini og‘irlashtirishdek qarama-qarshi niyatning mavjudligi;

- keyinchalik guvoh, tanib oluvchi yoki tergov harakatining ishtirok-chisi sifatida qatnashishni, sudga chaqirtirilishni istamaslik;

- o‘zining nojo‘ya, axloqqa zid xatti-harakatlari va shu kabilarni yashi-rishga urinish.

Jabrlanuvchining yolg‘on ko‘rsatuvlar berish motivlari yuqorida keltirilganlarga o‘xshab ketadi, ularga faqat quyidagi motivlarni qo‘shish mumkin:

- yo‘qolgan boyliklarning manbalarini yashirish uchun jabrlanuvchiga jinoyat tufayli yetkazilgan zararni kamaytirib ko‘rsatish istagi;

- ham qasos, ham g‘araz va boshqa maqsadlar (rashk, g‘azab va h.k.) tufayli jinoyat natijasida yetkazilgan zararni bo‘rttirib ko‘rsatishga intilish. Gumon qilinuvchi va ayblanuvchilarning yolg‘on ko‘rsatuvlar berish motivlari juda xilma-xildir. Tergov amaliyotida quyidagilari eng ko‘p uchraydi:

- sodir etilgan qilmish uchun javobgarlikdan qochish yoki o‘z aybini kamaytirib ko‘rsatishni istash yoxud sodir etilmagan ayb uchun jazo olishni, uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyat uchun esa, haqiqiy yoki soxta jazo olishni istash;

- do‘stlik, oila a’zosi ekanligi yoki qarindoshlik aloqalari tufayli g‘araz maqsadlarda ishtirokchilar aybini yashirish yoki yengillashtirishga intilish;

- qasos olish maqsadida yoki kelajakda o‘z xavfsizligini ta’minlash uchun ishtirokchilarni ayblashga, shuningdek, ruhiy holatidagi kasallik yoxud maqtanish kabilar sababli o‘zini ayblash (aybni bo‘yniga olish);

- yaqin odamining jirkanch, jumladan jinoiy xulqini yashirish uchun aybni o‘ziga olishga urinish.

(cc) BY

Bila turib yolg‘on ko‘rsatuv beruvchi shaxs tergovga qarshilik ko‘rsa-tadi. Tergovchi bilan kurashishga kirishadi. Buning natijasida nizoli vaziyat yuzaga keladi.

So‘roq qilinayotgan shaxs yolg‘on ko‘rsatuvlar berganligini fosh qilish uchun tergovchi faktik usullardan foydalanishi zarur.

Guvohning yolg‘onini fosh qilishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

- uning qarashlari noto‘g‘riligi, fuqarolarga qarshi qaratilganiga ishon-tirish;
- yolg‘on ko‘rsatuvlar berishning huquqiy oqibatlarini tushuntirish;
- jabrlanuvchilar, gumon qilinuvchilar, ayblanuvchilardan bo‘lgan so‘roq qilinuvchining yaqinlari uchun yolg‘on ko‘rsatuvlar berishining zararli oqibatlarini tushuntirish;
- so‘roq qilinayotgan shaxsning ijobiy xususiyatlariga (o‘z qadr-qim-matini his qilishi, oriyati, jasurligi, olijanobligi, qat’iyatliligi kabilarga) ta’sir ko‘rsatish.

Xulosa qilib aytganda, gumon qilinuvchi va ayblanuvchini so‘roq qilish jarayoni nafaqat huquqiy, balki murakkab psixologik jarayon ham hisoblanadi. Unda shaxsning ruhiy holati, individual xususiyatlari va xulq-atvorini to‘g‘ri baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Tergovchining psixologik bilimlari, kasbiy muloqot madaniyati va vaziyatni tahlil qilish qobiliyati so‘roq samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, so‘roq jarayonida qonuniylik, xolislik va inson huquqlariga hurmat tamoyillari ustuvor bo‘lishi lozim.

AMALIY TAVSIYALAR

1. So‘roqdan oldin gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchining individual-psixologik xususiyatlarini o‘rganish.
2. Shaxsning emotsional holati, stress darajasi va psixologik reaksiyalarini hisobga olish.
3. So‘roq jarayonida faol tinglash, ochiq savollar berish va samarali muloqot usullaridan foydalanish.
4. Shaxsning imo-ishoralari va mimikasini alohida dalil sifatida emas, balki boshqa ma’lumotlar bilan birgalikda baholash.
5. Ruhiy bosim, tahdid, majburlash va noqonuniy psixologik ta’sir usullariga yo‘l qo‘ymaslik.
6. Olingan ko‘rsatmalarni boshqa dalillar bilan solishtirish va xolis tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Usmanova A.A., Norboev A.N.. YUridicheskaya psixologiya. TGYUI. 2005 g.
2. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. Turon-iqbol‖ nashr. T. 2006 -118 b
3. Umarov B., Xolnazarova M. X. Yuridik psixologiya. Darslik. Guliston. GulDU.2022. -229 b.

(cc) BY

4. Norboyev A.N., Usmonova A.A. Yuridik psixologiya. O`quv qo`llanma. T.2006.-67

5. Исмоилов К. Ҳуқуқий психология ҳамда судьяларнинг касбий-малакавий ҳуқуқий психологияси тушунчалари. Т. ―Ношир нашр. 2011. -26 б.

6. Dastlabki tergov faoliyati psixologiyasi: Darslik / B.N. Sirliyev, I.A. Sottiyev va boshq.; Sh.T. Ikramovning umumiy tahririda. – T.: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2015. – 329 b.

7. Odilboyevich, J. X. (2025). DEVIANT XATTI XARAKATLARNING NAMOYON BO'LISHIDA XARAKTER AKSENTUATSIYASINI O'RNI. Международный журнал научных исследователей, 10(2), 29-34.

8. Jurayev, X. O. (2023). O ‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi tiplarining deviand xulq-atvor shakllanishiga ta’sirining psixologik mexanizmlari. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(9), 560-569.

9. Jurayev, X. O. (2026). Xarakter aksentuatsiya konsepsiyasini ijtimoiy psixologik jixatdan qo ‘llash sohalari. Science and Education, 7(1), 1050-1055.

10. Jurayev, X. O. (2023). O spirinlik yoshida shaxsda stressli vaziyatlarda individual koping strategiyalarning o rni va axamiyati. Educational Research in Universal Sciences, 2(4), 512-515.

11. Қаюмов, Б. З. Ў., & Абдураҳмонов, О. А. Ў. (2021). ТАЛАБАЛАРДА ШАХСИЙ ВА ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАЗИЛАТЛАРНИ ШАКЛЛАНТИРИШ МЕХАНИЗМЛАРИ. Scientific progress, 1(6), 750-754.

12. Qayumov Baxtiyor. (2024). THE CORRELATION RELATIONSHIP OF THE DEVELOPMENT OF CREATIVITY IN ADOLESCENTS WITH ACHIEVEMENT MOTIVATION. Next Scientists Conferences, 1(01), 24–27. Retrieved from https://nextscientists.com/index.php/science-conf/article/view/261

13. Baxtiyor, Q. (2024). CREATIVITY AS A RESEARCH SUBJECT IN PSYCHOLOGICAL RESEARCH. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(07), 76-80.

14. Baxtiyor, Q. (2023). O ‘SMIR SHAXSIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O ‘RNI. Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences, 178-183.